



OILALARDA BOLALARGA NISBATAN BEG'ARAZLIK TARBIYASI SHAKLLANISHIGA TURTAKI BO'LUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Saparova Gulhayo Xo'janazar qizi

*Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi 84-maktabda amaliyotchi
psixolog*

Annotasiya Zamonaviy ota-onalar alturizmning kerakligi va bahosini tan olgan holda, o'z farzandlari bilan beg'arazlik tarbiyasida muloqot qilishdan o'zlarini olib qochmoqdalar.

Kalit so'z; alturizm, fenomen, motivatsiya, eksperiment, xulq-atvor, oila, prosotsial egoizm, ruhiy holat

KIRISH

Altruizm-boshqalarning farovonligi uchun beg'araz g'amxorlik bilan bog'liq faoliyatni anglatuvchi tushuncha. Fidoyilik ya'ni o'z manfaatini boshqa birovning manfaati uchun qurbon qilish bilan bog'liq. Alturizm fenomeni nazariy va eksperimental o'rganish shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ushbu xodisa shaxsning biron kishiga yoki insonlar guruhiga beg'araz yordam berishga yo'nalganligi bilan belgilanar ekan, uning motivatsiya o'zga kishilar haqida qayg'urishdan iborat bo'ladi.

Alturistik yo'nalganlik shaxsning hayoti davomida shakllanadigan xususiyati bo'lib, yosh xususiyatlari bilan belgilanmaydi. Alturistik yo'nalganlik nafaqat shaxning individual o'ziga xosligiga bog'liq bo'ladi, u avvalom bor yashab turgan muhitga, oilaga umuman olganda ijtimoiy muhitga bog'liq ravishda shakllanadi. Bugungi kunda jamiyatimizda prosotsial xulq-atvor haqida ancha murakkab va bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan fikrlar shakllanib qolgan. Buning sababi shundan iboratki biz shaxsning qanday xususiyatlari alturizm bilan bog'liq bo'lishini bilmaymiz, chunki alturizm murakkab ko'p bosqichlik xususiyat xisoblanadi va uning tomonlari quyidagilardan iborat;





- motivatsion kontakt-shaxsning tashqi xulq-atvori va maqsadlariga ta'sir ko'rsatuvchi kuch sifati shaxsning ichki omillarining ta'siri;
- emotsional komponent empatiya, qayg'urish, qo'rquv, aybdorlik va vijdon sifatida namoyon bo'lishi;
- kognitiv komponent jamiyatda qabul qilingan me'yor va talablar haqidagi bilimlar, shuningdek mardonavor harakatlar haqida o'ylash;
- shaxsiy komponent, alturizm bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar tizimi, o'z-o'ziga baho berish va shaxsning boshqa individual xususiyatlarining o'zaro bog'liqligi;
- xulq-atvor komponentlari, yordamga muhtoj bo'lgan odamlarga aniq harakatlar orqali yordam ko'rsatish.

So'rovnoma ikki qismdan iborat bo'lib, birinchisi pasport qismi bo'lib, u o'z ichiga sinaluvchining yoshi, jinsi, "protsessual" va "natijaga", "alturizm" va "egoizm"ga yo'nalganlik natijalarini olgan. Oilada ota-onalarning o'z farzandlariga berayotgan tarbiya usullari korrektirovkaga muhtojligini respondentlar bergan javoblardan ham ko'rish mumkin. Zamonaviy ota-onalar alturizmning kerakligi va bahosini tan olgan holda, o'z farzandlari bilan beg'arazlik tarbiyasida muloqot qilishdan o'zlarini olib qochmoqdalar. Ota-onalarning fikricha, alturist insonning hayoti qiyin kechadi, amaliy hayotda shunday tushunchalar borki, ular alturistik salbiy xususiyat degan noto'g'ri tasavvurni paydo qiladi. Masalan: o'zngni bil, o'zgani qo'y.

Oilada alturizmni shakllanishga oid tadqiqotlar juda kam bo'lganligi sabab bugungi kunda tajavvuzkor, egoist shaxslar ko'payib bormoqda. Oilada shaxslararo munosabatlar shaxsning rivojlanishida muhim o'rin tutishini eslatib o'tish maqsadga muvofiqdir, chunki bola ota-ona rahbarligida ilk bora atrof muhit, jamiyatda yashash malaka va ko'nikmalari haqidagi hayotiy tajribani egallay boshlaydi.

Biroq bola shaxsining alturistik yo'nalganlikni shakllanishini o'ziga hos tomonlarini kuzatishga imkon berib, inson hayotidagi munosabatlarda ushbu xususiyatning o'rni va ahamiyatini tushuntirib beradi. Respublikamizda olib



borilayotgan tub islohatlar oila, oiladagi farzand tarbiyasi manfaatlarini ko'zlab, davlat dasturlari qabul qilinib, sog'lom avlodni har tomonlama etuk, komil inson qilib tarbiyalashga yo'naltirilgan ilmiy islohatlarning olib borilayotgan bir paytda ota-onalarning o'z farzandlariga kam e'tiborda bo'layotganliklari barchani tashvishga solishi tabiiydir.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, shunday hulosalar qilish mumkinki, bugungi kunda jamiyatimiz uchun milliy qadriyatlarimizdan kelib chiqqan holda an'ana va urf odatlarimizni hurmat qiladigan, o'zgaralar mehnatini qadrlaydigan, atrofdagi voqea-hodisalarga befarq bo'lmagan va bularga ijobiy yondashadigan xulq-atvorli shaxslarni tarbiyalash ma'suliyatli va dolzarb bo'lgan masala bo'lib, ushbu muammoni bizning kichik tadqiqotimiz hal etishga ko'maklashadi degan umiddamiz.

TAVSIYALAR

Alturistik tarbiya murakkab va ko'p rejali jarayon xisoblanib, ushbu ota-onalar va tarbiyachilarga berayotgan tavsiyalarimiz orqali tezkor natijalarga erishib bo'lmastligini ogohlantirib o'tishimiz joyiz, shuning uchun uzoq muddatli va individual yondashuvni talab qiladi.

1. Alturistik tarbiyani o'zingizdan boshlang. O'z-o'zingizni tahlil qilish bilan shug'ullaning. O'z xatti-xarakat va motivlaringizni tasavvur va amaliyotda xulqingiz bilan solishtiring, farzandingizga bunday tarbiyani bera olishingizni yana bir bor o'ylab ko'ring.

2. Bolani muhabbat, ishonch va o'zaro o'zaro tushunuvchanlik ruhida tarbiyalang. Farzandingizni mustaqil fikrga ega shaxs sifatida qabul qiling. Bola tug'ilishi bilanoq ota-onasining unga va atrofdagilarga ko'rsatayotgan yordamlari sifatida na'munalardan bahramand bo'lishlari zarur.

3. Farzandingiz bilan o'zgalarga yordam berishning muhimligi borasida tez-tez suhbatlashing. Bola o'zgalarning ehtiyojlarini tushunishi va anglashi lozim, ularga hamdard bo'lishga o'rgating.

4. Bola xulq-atvoridagi ko'zlangan natijaga ijobiy yoki salbiy turtkilar erishish mumkin. Lekin bunga rioya qilish uchun bir necha qoidalarni bilish zarur;



- A) ruhiy yoki jismoniy zarar etkazuvchi jazoni qo'llang;
- B) rag'batlantirishda iqtisodiy emas balki ma'naviy qo'llab-quvvatlash zarur;
- S) rag'bat va jazoni har bir bolaning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qo'llang;
- D) ichki motivatsiyani buzilishini oldini olish maqsadida, bola qilish kerak bo'lgan xarakatlarni rag'batlantiring.
- 5) Bolaga ijtimoiy qadriyatlar sanalmish adolatparvarlik, chidamlilik, vijdonlilikni singdirishga xarakat qiling.
- 6) Yordam ko'rsatishning alturistik motiv sifatida belgilang. Masalan: "Borib do'stingni kiyinishiga yordam ber, sen yahshi bolasanku", "Zo'r ish qilding, vaqting bo'lmasada sen unga yordam berding".
- 7) Kino, adabiyot va san'atda uchraydigan alturistik xulqiga bolaning e'tiborini qarating va muhokama qiling. Bunday hulq bolada tez-tez ongli yoki ongsiz taqlidni qujudga keltiradi.
- 8) Har qanday qo'pollik va tajavvuzkorlikni e'tibordan chetda qoldirmang.
- 9) Agar bola xudbinlik va o'ziga bino qo'yishlik sharoitiga tushib qolsa, unga yordam qo'lini cho'zing. Bunday xulqni salbiy tomonlarini tushuntiring.
- 10) Oilada aka-uka, opa-singil o'rtasidagi munosabatlarda mehr-muhabbatga sug'orilgan munosabatlarni shakllantirishga harakat qiling.
- 11) Turmush sharoitida beg'araz yordam ko'rsatishni farzandlaringiz bilan amadiyotda sinang.

XULOSA

Oilada shaxslararo munosabatlarning o'ziga hos tomonlarini alturistik yo'nalishga ta'sirini aniqlash, bola va ota-ona o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni samarali tashkil etish bugungi kun talabidir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shoumarov G'. B, Shoumarov Sh. B, "Muhabbat va oila" T.:bin Sino 1994. 120-6et.



2. Эйдемелир Э.Г, Юстецкий В.В “Семейная психотерапия”
“Ленинград” 1989.192с.
3. Энциклопедия семейной жизни В 2 – Х Т.Т.1 Донецк 1993. 412с.Я
работаю психологом М.: 1999.
4. “O'zbek oilasining etnopsixologik muammolari” (Respublika ilmiy
amaliy anjuman ma'ruzalarining qisqacha bayoni) T.: 1993.
5. Internet materiallari